



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



UDK: 334.012:338.22

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.21>

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH

*Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna
Barotov Komiljon Farhod o'g'li*

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

*Эргашева Насиба Рахматуллаевна
Баротов Комилжон Фарход углы*

IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION BASED ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

*Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna
Barotov Komiljon Farhod o'g'li*

Received: January 14, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tizimdagi o'rni va uning aholi turmush sifatiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlikni oshirish, daromad manbalarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati, raqobatbardoshlikni oshirish omillari va davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tadbirkorlikni tizimli rivojlantirish orqali aholining ijtimoiy farovonligi va turmush sifati barqaror o'sishini ta'minlash mumkinligi asoslab berilgan.

Аннотация: В статье анализируется роль предпринимательства в экономической системе и его влияние на качество жизни населения. Рассматриваются вопросы повышения занятости населения, расширения источников доходов и укрепления региональной экономической активности посредством развития предпринимательства. Также изучается инновационная деятельность субъектов малого предпринимательства, факторы повышения конкурентоспособности и эффективность механизмов поддержки, создаваемых государством. По результатам исследования обосновывается, что посредством системного развития предпринимательства можно обеспечить устойчивый рост социального благополучия и качества жизни населения.

Abstract: This article analyzes the role of entrepreneurship in the economic system and its impact on the quality of life of the population. The issues of increasing employment, expanding sources of income, and strengthening regional economic activity through the development of entrepreneurship are discussed. The innovative activities of small business entities, factors for increasing competitiveness, and the effectiveness of support mechanisms created by the state are also studied. According to the results of the study, it is justified that through the systematic development of entrepreneurship, it is possible to ensure a sustainable increase in the social well-being and quality of life of the population.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, turmush sifati, bandlik, innovatsiya, raqobatbardoshlik, farovonlik, investitsiya, davlat qo'llab-quvvatlovi.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, экономическое развитие, качество жизни, занятость, инновации, конкурентоспособность, процветание, инвестиции, государственная поддержка.

Keywords: entrepreneurship, small business, economic development, quality of life, employment, innovation, competitiveness, prosperity, investment, state support.

■ KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri — tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki

aholining daromad darajasini ko'tarish, turmush sifatini yaxshilash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususi tadbirkorlikni rag'batlantirish mamlakat iqtisodiyotining



barqaror poydevorini shakllantiradi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va aholi daromadlarini oshirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida mintaqalarning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy muammolari va rivojlanish potentsiali mavjud. Shuning uchun mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish orqali aholi turmush darajasini oshirish juda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli, xususi sektor bilan hamkorlik, moliyaviy resurslar va raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari alohida e'tiborga olinadi. Ushbu maqola mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan davlat siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati, shuningdek, innovatsion yondashuvlar va mintaqaviy strategiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan samarali metodologiyalar tahlil qilinadi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish, soliqqa oid imtiyozlar berish hamda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari jadal sur'atda rivojlanmoqda. Bu esa aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning asosiy maqsadi — tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholining turmush sifatini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv yondashuvlari uyg'unlashtirilib, zamonaviy innovatsion vositalar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari o'rganiladi.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari sohasida turli olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu adabiyotlar sharhida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar va metodologik usullarni tahlil qilamiz.

1. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik: Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish masalalariga oid dastlabki izlanishlar, asosan, iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash uchun mintaqaviy resurslarni samarali boshqarish zaruratiga e'tibor qaratadi. Xususan, Porter (1990) o'zining "Competitive Advantage of Nations" asarida, mintaqaviy iqtisodiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida raqobatbardoshligi va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'rsatadi. Uning nazariyasiga ko'ra, mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalar, raqobatbardosh texnologiyalar va yuqori malakali ishchi kuchi muhim rol o'ynaydi.

2. Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish: Schumpeter (1934) o'zining "The Theory of Economic

Development" asarida tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning motori sifatida ta'riflagan. Uning fikriga ko'ra, tadbirkorlar yangiliklarni yaratish va innovatsiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy tizimni rivojlantiradilar. Acs va Audretsch (1990) kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida ko'rib, bu sektorni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni amalga oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini tahlil etadilar.

3. Aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlik: Aholi daromadlarini oshirish masalasiga oid izlanishlar, asosan, iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Sen (1999) o'zining "Development as Freedom" asarida iqtisodiy rivojlanishni inson huquqlari va erkinliklari bilan bog'lagan va aholi daromadlarini oshirishda ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy tenglikni ta'minlashning ahamiyatini ta'kidlagan. Rodrik (2007) esa iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, mintaqaviy iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish zarurati haqida fikr bildirgan.

4. Mintaqaviy strategiyalar va davlat siyosati: Krugman (1991) "Geography and Trade" asarida mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat siyosatining rolini tahlil qilgan. Uning nazariyasi bo'yicha, davlat mintaqaviy infratuzilma, ta'lim tizimi va tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi lozim. Rodrik, Subramanian va Trebbi (2004) esa iqtisodiy siyosatning mintaqaviy iqtisodiy o'sishdagi roli va davlat tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalarni muhokama qilganlar. Ular, shuningdek, davlat va xususi sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurati haqida gapiradilar.

5. Innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni tatbiq etish: Innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Drucker (1985) "Innovation and Entrepreneurship" asarida tadbirkorlikni innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni sifatida ta'riflagan. U innovatsion tadbirkorlik va yangi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni haqida yozadi. Schilling (2008) innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda texnologik o'zgarishlar va yangi g'oyalarni amalga oshirishda zarur bo'lgan strategiyalarni ko'rib chiqadi.

Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlar mintaqaviy iqtisodiy o'sish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning turli yo'nalishlarini tashkil etadi. Ushbu izlanishlar nafaqat nazariy asoslar, balki amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodologiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, bu ma'lumotlar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aholi turmush sifatiga tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi miqdoriy (statistik, so'rovnoma, tahlil)



va sifatli (intervyu, kuzatuv, kontent tahlil) usullarni o'z ichiga oladi.

1. Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Nazariy bosqich – adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlili orqali tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rolini aniqlash.

2. Empirik bosqich – amaliy so'rovlar, intervyular va statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazish.

3. Tahliliy bosqich – yig'ilgan ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash va xulosalash.

4. Tavsiyalar bosqichi – olingan natijalarga asoslanib, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali turmush sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2. Ma'lumot manbalari

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar turli manbalardan olingan bo'lib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumot manbalari

Manba turi	Usul	Qamrov	Maqsad
Ilmiy adabiyotlar	Kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar	40 ta manba	Nazariy asosni shakllantirish
Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari	Rasmiy hisobotlar	2018–2024 yillar	Iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish
Tadbirkorlik subyektlari	Anketa, intervyu	120 ishtirokchi	Amaliy tahlil va real holatni aniqlash
Mahalliy hokimliklar	Rasmiy ma'lumotlar, so'rovlar	8 ta tuman	Hududiy farqlarni baholash

Tadqiqotda nazariy va amaliy ma'lumotlarning uyg'unligi ta'minlangan bo'lib, bu yondashuv aholi turmush sifatiga tadbirkorlikning real ta'sirini kompleks baholash imkonini berdi.

3. Tahlil usullari

Tahlil jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

- **Statistik tahlil** – bandlik, daromad va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha foizli o'zgarishlarni hisoblash.

- **Taqqoslash usuli** – turli hududlardagi tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlarini solishtirish.

- **Kontent tahlili** – intervyu natijalari va respondentlarning fikrlarini mavzularga ajratish.

- **Grafik tahlil** – ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun diagramma va grafiklardan foydalanish.

4. Yakuniy metodologik yondashuv

Tadqiqot metodologiyasi yakunida tadbirkorlik faoliyatining aholi turmush sifatiga ta'siri uchta asosiy yo'nalishda baholandi:

1. Iqtisodiy samaradorlik – daromad, bandlik va yangi ish o'rinlarining o'sishi.

2. Ijtimoiy farovonlik – aholining yashash sharoiti, xizmatlar sifati, ijtimoiy faollik darajasi.

3. Hududiy rivojlanish – kichik biznesning tuman va viloyatlar kesimidagi ta'siri. Mazkur metodologiya tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy o'lchovlarini ham qamrab olib, aholi turmush sifatini yaxshilash jarayonidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish aholi turmush sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki innovatsiyalar, xizmatlar va mahsulotlar sifatining yaxshilanishiga, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularga soliq va kredit imtiyozlari berish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarishni kengaytirish – aholi daromadlarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tadbirkorlik muhitining barqarorligi va adolatli raqobat tamoyillarining ta'minlanishi jamiyatda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

O'zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar – “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi dasturlar orqali aholining keng qatlamlarini iqtisodiy jarayonlarga jalb etmoqda. Natijada, turmush sifati, bandlik darajasi va ijtimoiy faollik sezilarli darajada oshmoqda.

Shunday qilib, tadbirkorlikni kompleks rivojlantirish siyosati nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy adolat, barqaror farovonlik va aholining yuqori turmush sifatiga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna QarDTU “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori v.b. / Эргашева Насиба Рахматуллаевна, профессор, кафедра «Бухгалтерский учет и аудит», факультет «Экономика и менеджмент», КапГТУ / Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna, Professor, Department of "Accounting and Audit", Faculty of "Economics and Management", QarSTU
nasibaergasheva1988@gmail.com
0009-0002-6479-6709

2. Barotov Komiljon Farhod o'g'li QarDTU “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida magistratura talabasi / Баротов



К.Ф– магистрант кафедры «Инновационная экономика» факультета «Экономика и менеджмент» КапГТУ / Barotov Komiljon Farhod o'g'li - Master's student, Department of "Innovative Economics", Faculty of "Economics and Management", Karshi State Technical University
komiljonbarotov6@gmail.com
0009-0005-0924-388X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. (1990). Competitive Advantage of Nations. Free Press.
2. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
3. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (1990). Innovation and Small Firms. MIT Press.
4. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Alfred A. Knopf.
5. Krugman, P. (1991). Geography and Trade. MIT Press.
6. Rodrik, D. (2007). One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton University Press.
7. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row.
8. Schilling, M. A. (2008). Strategic Management of Technological Innovation. McGraw-Hill.
9. Rodrik, D., Subramanian, A., & Trebbi, F. (2004). Institutions Rule: The Primacy of Institutions over Geography and Integration in Economic Development. Journal of Economic Growth, 9(2), 131–165.
10. OECD (2020). SME and Entrepreneurship Policy in the Global Economy. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD).
11. UNDP (2018). Human Development Report 2018: Beyond Income, Beyond Averages, Beyond Today. United Nations Development Programme.
12. World Bank (2020). Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. World Bank Group.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz